5.5-masala. $P_n = 0,4 \text{ MPa}$ da bitta bug' olinishli kondensatsion turbina boshlang'ich parametrlari $P_0 = 3 \text{ MPa}$, $t_0 = 380^{\circ}\text{C}$ va kondensatordagi bug'ning bosimi $P_k = 4 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ da ishlaydi kondensatlanadigan bug' safi $D_k = 8,5 \text{ kg/s}$. sovitish suvining kirish harorati $t_b^I = 11^{\circ}\text{C}$, chiqish harorati $t_s^{II} = 21^{\circ}\text{C}$. Turbinaning yuqori bosim qismining nisbiy ichki FIK $\eta_{oi}^I = 0,74$, past bosim qismining nisbiy ichki FIK $\eta_{oi}^{II} = 0,76$. Kondensator sovitish suvining sarfi va sovitish karraligini aniqlang.

Javob: $W = 444,5 \text{ kg/s}$; $m = 52,3 \text{ kg/kg}$

5.6-masala. Kondensatsion turbina boshlang'ich parametrlari $P_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 435^{\circ}\text{C}$, kondensatordagi bug'ning bosimi $P_k = 4 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ da ishlaydi. Kondensatlanadigan bug'ning sarfi $D_k = 12 \text{ kg/s}$, turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,76$. Kondensatlanayotgan bug'ni turbina kondensatorda issiqlik berilishini aniqlang.

Javob: $Q = 27348 \text{ kW}$.

5.7-masala. Kondensat turbinaning kondensatordagi bug' bosimi $P_k = 3 \cdot 10^3 \text{ Pa}$.

Kondensatlanayotgan bug' sarfi $D_k = 8,5 \text{ kg/s}$. Sovitish karraligi $m = 54 \text{ kg/kg}$, sovitish suvining kondensatorga kirish harorati $t_b^I = 12^{\circ}\text{C}$, chiqish harorati kondensatordagi bug'ning to'yinish haroratidan 4°C past. Sovitish suvga kondensatlanayotgan bug' dan berilgan issiqlik miqdorini aniqlang.

Javob: $Q = 15386 \text{ kW}$.

5.8-masala. Samarali quvvati $N_e = 2600 \text{ kW}$, solishtirma bug' sarfi $D_e = 6,5 \text{ kg/kW gacha}$ bug' turbinaning kondensatorida sovitish suvga berilgan issiqlik miqdorini aniqlang. Sovitish karraligi $m = 55 \text{ kg/kg}$, sovitish suvining kondensatorga kirish harorati $t_b^I = 10,5^{\circ}\text{C}$ chiqish harorati $t_b^{II} = 21^{\circ}\text{C}$.

Javob: 11374 kW .

5.9-masala. Kondensatsion bug' turbinaning sanjarali quvvati $N_e = 2000 \text{ kW}$, bug'ning solishtirma sarfi $D_e = 5,5 \text{ kg/(kW soat)}$, kondensatordaga bug'ning bosimi $P_k = 5 \cdot 10^3 \text{ Pa}$, entalpiyasi $h_k = 2350 \text{ kJ/kg}$, issiqlik uzatish koefitsiyenti $k = 3,9$


$\text{kW}/\text{m}^2\cdot\text{K}$ va kondensatordagi sovitish suvining o'rtacha harorati farqi $\Delta t_{\text{o'n}}=10^\circ\text{C}$. Kondensatorning sovitish yuzasini aniqlang.

Javob: $F_k = 173,3 \text{ m}^3$.

5.10-masala. Samarali quvvati $N_e = 5000 \text{ kW}$, bug'ning solishtirma sarfi $D_e=5,8 \text{ kg}/(\text{kW}\cdot\text{soat})$ kondensatsion turbina $P_0 = 3,5 \text{ MPa}$ va $t_0=435^\circ\text{C}$ boshlang'ich parametrlarda ishlaydi. Kondensatordagi bug'ning bosimi $P_k=4\cdot10^3 \text{ Pa}$. Kondensatordagi sovitish suvining kirish harorati $t_k^I = 14^\circ\text{C}$, chiqish harorati $t_k^{II} = 24^\circ\text{C}$. Issiqlik uzatish koefitsiyenti $K=4 \text{ kW}/(\text{m}^2\cdot\text{K})$, turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,75$. Kondensatorning sovitish yuzasini aniqlang.

Yechish. Kondensatlanayotgan bug'ning sarfi (6) tenglamadan aniqlanadi:

$$D = D_k = D_e \cdot N_e / 3600 = 5,8 \cdot 5000 / 3600 = 8,06 \text{ kg/s.}$$



6- Rasm

Bug'ning h_0 entalpiyasini h -S diagrammada (6-rasm) aniqlanadi. $h_0 = 3320 \text{ kJ/kg}$.

h -S diagrammada bug'ning adiabatik kengayishini tasvirlab kondensatordagi entalpiyasini aniqlanadi; $h_{k,a} = 2120 \text{ kJ/kg}$.

Kondensatordagi bug'ning entalpiyasi esa:

$$h_k = h_0 - (h_0 - h_{k,a}) \cdot \eta_{oi} = 3320 - (3320 - 2120) \cdot 0,75 = 2420 \text{ kJ/kg.}$$

Kondensatlanayotgan bug'ning kondensatordagi issiqlik yo'qotilishi quyidagi tenglamadan aniqlanadi:

$$Q = D_k (h_k - h_k^I) = 8,06 \cdot (2420 - 121) = 18530 \text{ kW.}$$

Kondensatlangan bug'ning kondensatordagi bosimi $P_k=4\cdot10^3 \text{ Pa}$ dagi bug'ning entalpiyasini "Suv bug'i" jadvalidan aniqlanadi (to'yigan bug' jadvalidan): $h_k^I = 121 \text{ kJ/kg}$. Kondensatorning sovitish yuzasi tenglamadan aniqlanadi:

$$F_k = Q / (K \cdot \Delta t_{0,n}) = 18530 / 4 \cdot 10 = 463,2 \text{ m}^2$$

Issiqlik elektr stansiyalarining iqtisodiy tejamkorligini xarakterlovchi IES larning tejamkorligini aniqlovchil ko'satgichlar bu: FIKlari; shartli yoqilg'ini solishtirma sarfi; elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun solishtirma issiqlik sarfi; elektr energiyasining tannarxi.

IES ning FIK lari ikki turga bo'limadi:

brutto – o'z ehtiyojiga sarflangan energiyani hisobga olmagan FIK.

netto – o'z ehtiyojiga sarflangan energiyani hisobga olgan FIK.

IESning brutto FIK η_{KES}^{br} – ishlab chiqarilgan elektroenergiyani yoqilg'i bilan keltirilgan energiyaga nisbatidir.

$$\eta_{KES}^{br} = E^{ish} / (B \cdot Q'_q)$$

bu yerda: E^{ish} – ishlab chiqarilgan elektrenergiyaning miqdori, kJ;

B – yoqilg'i sarfi, kg;

Q'_q – yoqilg'i ishchi masalasining past yonish issiqligi, kJ/kg;

Agar IESning hamma qismlarining FIK lari aniq bo'lsa, ta'minot nasosining ishini hisobga olmagan holda, IESning brutto koefitsiyenti quyidagi tenglama orqali aniqlasa bo'ladi:

$$\eta_{KES}^{br} = \eta_{bg} \cdot \eta_{qu} \cdot \eta_t \cdot \eta_{oi} \cdot \eta_m \cdot \eta_r$$

Bu yerda:

η_{bg} – bug' generatorining FIK;

η_{qu} – quvurlarning FIK;

η_t – Renkin siklining termik FIK;

η_{oi} – turbinaning nisbiy ichki FIK;

η_m – turbinaning mexanik FIK;

η_r – generatorning elektr FIK.

IESning netto FIK – η_{KES}^{net} – iste'molga uzatilgan elektrenergiyani KES yoqilg'i bilan keltirilgan energiyaga nisbati.

$$\eta_{KES}^{net} = E^{uz} / B \cdot Q'_q$$

bu yerda $E^{uz} = E^{ish} - E^{ch}$ – iste'molga uzatilgan elektr energiya sarfi, ishlab chiqarilgan energiya va IESning o'z ehtiyojiga sarflangan energiyalarining ayirmsigiga teng.

IESda $1 \text{ MJ} (10^3 \text{ kJ})$ elektrenergiyani ishlab chiqarish uchun solishtirma sarfi (kg/MJ) quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$B_{KES}^* = B \cdot Q'_q / (29,3 E^{ish}) = 0,0342 / \eta_{KES}^{br}$$

IESda kW-soat elektroenergiyani ishlab chiqarish uchun yoqilg'ining solishtirma sarfi [kg/(kW · soat)] quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$B_{KES}^t = 3600 B \cdot Q_{KES}^{sh} / (29300 \cdot E^{sh}) = 0,123 / \eta_{KES}^{sh}$$

IESlarda elektroenergiyani ishlab chiqarish uchun issiqlikning solishtarma sarfi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$D_{KES}^f = Q_Q^f \cdot B_{KES}^t$$

$$D_{KES}^f = 1 / \eta_{KES}^{fr}$$

IESda uzatilayotgan (1 kW · soat) elektr energiyaning tannarxi (so'm/kW · soat) quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$S_{KES}^{fr} = \sum X / E^{opt} = [(X_{top} + X_{am} + X_{z,p} + \sum I_{pr}) / E^{uz}] \cdot 100$$

$\sum X$ – harajatlar summasi, so'm/yil;

X_{yo} – yoqilg'iga bo'lgan harajatlar so'm/yil;

X_a – amortizatsiyaga bo'lgan harajatlar, so'm/yil.

X_{ih} – ish haqi maoshi harajaflari, so'm/yil.

$\sum X_b$ – boshqa har xil harajatlar, so'm/yil.

5.11-masala. Kondensatsion elektr stansiya bir yilda $\Theta^{sh} = 590 \cdot 10^{10}$ kJ/yil elektr energiya ishlab chiqarib, $B = 720 \cdot 10^6$ kg/yil past issiqlik berishidan $Q_v = 20500$ kJ/kg tosh ko'mir sarflangan. Ishlab chiqarilgan elektroenergiyani 5% o'z ehtiyojlarini qoplash uchun sarflangan. Stansiyaning brutto va netto FIKni aniqlang.

Javob: $\eta_{KES}^{fr} = 0,4$; η_{KES}^{n} = 0,38.

5.12-masala. Kondensatsion elektr stansiyaning boshlang'ich parametrlari $P_0 = 9 \text{ MPa}$; $t_0 = 550^\circ\text{C}$; kondensatordagagi bug'ning bosimi $P_k = 4 \cdot 10^3 \text{ Pa}$ KEStni qozon qurilmasining FIK $\eta_{ky} = 0,89$; quvurlarning FIK. $\eta_{cp} = 0,97$; turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,84$; $\eta_m = 0,98$; $\eta_t = 0,98$. KEStning brutto FIK ni aniqlang.

Javob: $\eta_{KES}^{fr} = 0,3$.

5.13-masala. Kondensatsion elektr stansiya bir yilda $\Theta^{sh} = 100 \cdot 10^6$ kW · soat/yil elektr energiya ishlab chiqardi, bundan 5% elektroenergiyani o'z ehtiyoji uchun ishlatdi. Stansiyadagi harajatlar summasi $\sum X = 7,6 \cdot 10^5$ so'm/yil bo'lganida iste'molga uzatilgan 1kW · soat elektr energiyaning tannarxini aniqlang.

Javob: $S_{KES}^{opt} = 0,8$ so'm/kW · soat.

5.14-masala. Kondensatsion elektr stansiyasining bir yilda iste'molga uzatgan $\Theta^{opt} = 120 \cdot 10^6$ kW · soat/yil elektr energiyaning 1 kW · soat energiya tannarxi $S_{KES}^{opt} = 0,7$ so'm (kW · soat); energiya uzatish niqdori $\Theta_{KES}^{opt} = 70 \cdot 10^6$ kW · soat/yil

6.2-masala. Birinchi masaladagi kondensat stansiya sxemasiga $P_{st} = 0,1 \text{ MPa}$ bosimda regenerativ bug' olinishdan aralashma qizdirgichda $t_{k,s} = 100^\circ\text{C}$ gacha ta'minot suv qizdirilganda trubinaga bo'lgan bug' sarfi qanchaga o'zgaradi, va shu sxemadagi termik FIK ni ham aniqlang.

$$D_r = D + y D_{ul} = \frac{N_2}{(i_0 - i_{k,a})} + \frac{i_{ul} - i_k}{i_0 - i_k} \cdot D_{ul} \quad (6.2)$$

Bu yerda:

$$y = \frac{i_{ul} - i_k}{i_0 - i_k} \quad (6.3)$$

bug'ning ishlatalmagan quvvat koefitsiyenti.

D_{ul} - regenerativ bug' olinishdagi bug' sarfi;

Bug' olinadigan bug' sarfini ko'pincha turbinaga bo'lgan bug' sarfiga nisbatan ulushlarda ko'rsatiladi. $D_{ul} = \alpha D_n$ (3) $\rightarrow \alpha$ - olinishdagi bug'ning sarfi. Bu kattalik aralashma regenerativ qizdirgichning issiqlik balansidan aniqlanadi:

$$\alpha(i_{ul} - i'_k) = i'_{nb} - i'_r \quad \alpha = \frac{i'_{nb} - i'_r}{i_{ul} - i'_k} \quad (6.4)$$

(6.3) tenglamani (6.2) tenglamaga qo'yib topiladi:

$$D_r = D + y D_{ul} = D + y \cdot \alpha \cdot D_r$$

bu yerdan:

$$D_r = \frac{D}{1 - \alpha \cdot y} \quad (6.5)$$

Shunday qilib, regenerativ olinishli turbinaga bo'lgan bug' sarfini aniqlash uchun D ; y ; va α qiymatlardan foydalananamiz.

u - aniqlash uchun olinishdagi bug'ning entalpiyasi va kengayishning oxirgi entalpiyasi h - s diagramma orqali aniqlanadi (7-rasm).

$$h_{omo} = 2653 \text{ kJ/kg}; h_k = 2336 \text{ kJ/kg};$$

Suv va suv bug'i jadvali orqali:

$h_{f,A} = 413 \text{ kJ/kg}$ va $h'_k = 137,7 \text{ kJ/kg}$ ($t_{k,s} = 100^\circ\text{C}$, va $t'_k = 32,9^\circ\text{C}$) 6.3 va 6.4 tenglamadan u va α aniqlanadi:

bo'lganida 1 kW · soat elektr energiyaning tannarxini aniqlang. Stansiyadagi yillik harajatlarni bir xil deb hisoblang.

Javob: $S_{1\text{KES}}^{\text{om}} = 1 \text{ tiyin/kW} \cdot \text{soat}$.

$S_{2\text{KES}}^{\text{om}} = 1,2 \text{ tiyin/kW} \cdot \text{soat}$.

6. Energetik qurilmalarning principial issiqlik sxemalari va ularni hisoblash usullari

6.1-masala. Kondensatsion elektr stansiyaning boshlang'ich parametrlari $P_0 = 3,5 \text{ MPa}$; $t_0 = 435^\circ\text{C}$ va kondensatorndagi bosim $P_k = 5 \text{ kPa}$ da ishlaydi. IESning quvvati $N_e = 12 \text{ mW}$, turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,82$, elektromexanik FIK $\eta_{em} = 0,92$. Turbinaning FIKni aniqlang

Yechish. turbinaga bo'lgan bug' sarfi quyidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$N_e = D (i_0 - i_{ka}) \cdot \eta_{oi} \cdot \eta_{em} \quad (6.1)$$

N_e - turbogeneratorning elektr quvvati kW.

D - turbinaga bo'lgan bug' sarfi kg/s.

$h_o - h_{ka}$ - bug'ning boshlang'ich va turbinada adiabatik kengayishidagi entalpiyalari, kJ/kg.

Masalani yechishda suv va suv bug'ining jadvalidan va $h - s$ diagrammasidan foydalanamiz. 7-rasmda $h - s$ diagrammada bug'ning turbinadagi kengayish jarayoni tasvirlangan. Bug'ning adiabatik kengayishida diagrammadan:


$$h_o = 3303 \text{ kJ/kg}; h_{ka} = 2124 \text{ kJ/kg}.$$

Bu kengayishni tasvirlash uchun haqiqiy oxirgi entalpiyasi.

$$h_k = h_o - (h_o - h_{ka}) \cdot \eta_{oi} = 3303 - (3303 - 2124) \cdot 0,82 = = 2336 \text{ kJ/kg}.$$

D₀(6.1) tenglamadan aniqlanadi:

$$D = \frac{N}{(i_0 - i_{ka}) \eta_{oi} \eta_{em}} = \frac{12 \cdot 10^3}{(3303 - 2124) \cdot 0,82 \cdot 0,92} = 13,43 \text{ kg/s.}$$



Ta'minot nasosining ishini hisobga olmagan holda termik FIKni aniqlash uchun kondensatordan chiqayotgan kondensatorning entalpiyasini suv va suv bug' jadvali orqali P_k bosimdagi suvning entalpiyasini aniqlanadi: $h_k^1 = 137,8 \text{ kJ/kg}$. Renkin siklining termik FIK quyidagi tenglama orqali aniqlanadi.

$$\eta_t = \frac{(i_0 - i_{ka})}{i_0 - i_k^1} = \frac{3303 - 2124}{3303 - 137,8} = 0,372$$

$$\alpha = \frac{i'_{nb} - i'_k}{i'_{nl} - i'_k} = \frac{2653 - 2336}{3303 - 12336} = 0,328;$$

(6.5) tenglamadan D_t aniqlanadi:

$$D_t = \frac{D}{1 - \alpha \cdot y} = \frac{13,49}{1 - 0,109 \cdot 0,328} = 13,99 \text{ kg/s};$$

$$D_{st} = \alpha \cdot D_t = 0,109 \cdot 13,99 = 1,53 \text{ kg/s};$$

tenglamadan yechimni to‘g‘riligini aniqlang: (6.2).

$$D_t = D + yD = 13,49 + 0,328 \cdot 1,53 = 13,99 \text{ kg/s}.$$

Regenerativ olinishli turbinaning termik FIK quyidagi tenglama orqali aniqlanadi:

$$\eta_r^p = \frac{(i_0 - i_{ka}) \cdot (1 - \alpha \cdot y)}{i_0 - i'_{nb}} = \frac{(3303 - 2124)(1 - 0,109 \cdot 0,328)}{3303 - 413} = 0,393$$

Termik FIKning nisbiy ko‘payishi:

$$\Delta \eta_r = \frac{\eta_r^p - \eta_r}{\eta_r} \cdot 100 = \frac{0,393 - 0,372}{0,372} \cdot 100 = 5,6\%$$

6.3-masala. Kondensat turbina boshlang‘ich $P_0 = 13 \text{ MPa}$ $t_0 = 550^\circ\text{C}$ da va kondensatorga bug‘ bosimi $P_k = 6,0 \text{ kPa}$ da ishlaydi. Stansiyaning quvvati $N_e = 40 \text{ MW}$, turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,79$; elektromexanik FIK $\eta_{em} = 0,93$. Turbinaga bo‘lgan bug‘ sarfi, va termik FIKni aniqlang.

Javob: $D = 48,6 \text{ kg/s}$, $\eta_r = 43\%$.

6.4-masala. Kondensatsion turbinaning boshlang‘ich parametrlari $P_0 = 4 \text{ MPa}$; $t_0 = 450^\circ\text{C}$ va kondensatordagi bug‘ bosimi $P_k = 4 \text{ kPa}$ da ishlaydi. Ta’minot suv uchta aralashma regenerativ qizdirgichda (2-rasm) $t_{n,n} = 150^\circ\text{C}$ gacha regenerativ bug‘ olinishidagi bug‘ bisobiga qizdiriladi. Turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,85$, elektromexanik FIK $\eta_{em} = 0,93$, stansiyaning quvvati $N_e = 25 \text{ MW}$. Turbinaga bo‘lgan bug‘ sarfi va termik FIKni aniqlang.

Yechish: bu masala 2-masalaning yechish usuli bo‘yicha yechiladi. Birinchi o‘rinda olinishlardagi parametrlar va regeneratsiya uchun olinishdagi bug‘ sarflarining uluslari aniqlanadi: D_1 , D_2 , D_3 .

$$D_1 = \alpha_1 D_t; D_2 = \alpha_2 D_t; D_3 = \alpha_3 D_t;$$

Olinishdagи parametrlar P_1 , P_2 , P_3 va i_1 , i_2 , i_3 - h - s diagrammadagi turbinada hug' kengayish jarayonining tasviridan aniqlanadi. Regenerativ qizdirish qizdirgichlar orasida $t_k = 28,6^{\circ}\text{C}$ dan $t_{ns} = 150^{\circ}\text{C}$ gacha teng taqsimot bo'yicha qizdiriladi deb hisobga olamiz. Demak, har bitta aralashma qizdirgichda

$$\Delta t_{or} = \frac{t_{ns} - t_k}{3} = \frac{150 - 28,6}{3} = \frac{121,4}{3} = 40,5^{\circ}\text{C} \text{ gacha kondensat qizdiriladi.}$$

Olinishlardagi bosimlarni qizdirishdagi to'yinish harorati bo'yicha suv va bug'i jadvallaridan topiladi.

Uchinchi regenerativ qizdirgichda kondensatning to'yinish harorati:

$$t_{3n} = t_k + \Delta t_{or} = 28,6 + 4,05 = 69,1^{\circ}\text{C}$$

Jadvaldan: $t_{3n} = 69,1^{\circ}\text{C} \rightarrow P$ uchinchi olinishdagи bosim topiladi. $P_3 = 30 \text{ kPa}$.

Shu usulda ikkinchi va birinchi qizdirgichiarni kondensat to'yinish haroratinini aniqlab ikkinchi va birinchi bug' olinishdagи bosimlar topiladi:

$$t_2 = t_k + 2\Delta t = 28,6 + 81 = 109,6^{\circ}\text{C}.$$

$P_2 = 0,142 \text{ MPa}$.

$$t_{1n} = t_k + 3\Delta t_{or} = t_{2n} + \Delta t_{or} = 109,6 + 40,5 = 150,1^{\circ}\text{C}$$

Berilishda $t_{1n} = 150^{\circ}\text{C}$ bo'lganligi uchun birinchi qizdirgichda qizdirilish $\Delta t_{or} = 40,4^{\circ}\text{C}$ deb qabul qilamiz va $t_{1n} = 150^{\circ}\text{C} \rightarrow P_1 = 0,475 \text{ MPa}$.

h - s diagramma orqali η_{or} hisobga olib:

$h_0 = 3332 \text{ kJ/kg}$; $h_k = 2281 \text{ kJ/kg}$; $h_1 = 2508 \text{ kJ/kg}$

$h_2 = 2718 \text{ kJ/kg}$; $h_3 = 2908 \text{ kJ/kg}$ topiladi.

Keyin α_1 ; y_1 ; α_2 ; y_2 ; α_3 va y_3 larni ikki masalada aniqlagandek aniqlanadi:

$$\lambda_1 = \frac{h'_{3n} - h'_k}{h_1 - h'_{3n}} = \frac{289,3 - 119,6}{2508 - 289,1} = 0,0765$$

bu yerda:

$$h'_{3n} = C_p \cdot t_{3n} = 4,19 \cdot 69,1 = 289,3 \text{ kJ/kg}$$

$$h'_k = C_p \cdot t_k = 4,19 \cdot 28,6 = 119,6 \text{ kJ/kg}$$

$$y_3 = \frac{h_1 - h_k}{h_0 - h_k} = \frac{2508 - 2281}{3332 - 2281} = 0,216$$

$$\alpha_3 = \frac{h'_{2n} - h'_{3n}}{h_2 - h'_{2n}} = \frac{458 - 289,3}{2718 - 458} = 0,0747$$

bu yerda:

$$h'_{2n} = Cp \cdot t_{2n} = 4,19 \cdot 109,6 = 458 \text{ kJ/kg}$$

$$y_2 = \frac{h_i - h_k}{h_0 - h_k} = \frac{2718 - 2281}{3332 - 2281} = 0,406$$

$$\alpha_1 = \frac{h'_{1n} - h'_{2n}}{h_i - h'_{1n}} = \frac{628 - 458}{2908 - 628} = 0,0746$$

bu yerda:

$$h'_{1n} = Cp \cdot t_{1n} = 4,19 \cdot 150 = 628 \text{ kJ/kg};$$

$$y_1 = \frac{h_i - h_k}{h_0 - h_k} = \frac{2908 - 2281}{3332 - 2281} = 0,597.$$

Regenerativ bug' olinishlarni hisobga olgan holda turbinaga bo'lgan bug' sarsfi aniqlanadi.

$$D_i = \frac{\eta_3}{(h_0 - h_k) \cdot \eta_{in} \cdot (1 - \sum_i \alpha_i y_i)} = \\ = \frac{25000}{(3332 - 2281) \cdot 0,93 \cdot (1 - 0,0765 \cdot 0,216 - 0,0747 \cdot 0,406 - 0,0746 \cdot 0,597)} = 28,4 \text{ kg / set}$$

Regenerativ bug' olinishli siklning termik FIK:

$$\eta'_t = \frac{(h_0 - h_k)(1 - \sum_i \alpha_i y_i)}{h_0 - h_{ns}} = \frac{(3332 - 2092) \cdot 0,908}{3332 - 628} = 0,416$$

Regenerativ bug' olinishsiz siklning termik FIK:

$$\eta_i = \frac{h_0 - h_{k0}}{h_0 - h'_n} = \frac{3332 - 2092}{3332 - 119,6} = 0,386$$

Regeneratsiya bug' olinishli siklning termik FIKning oshishi

$$\Delta\eta_i = \frac{\eta^p - \eta_i}{\eta_i} = \frac{0,416 - 0,386}{0,386} = 0,0777 \text{ yoki } 7,77\%$$

6.5-masala. K-12-35 turbinaning regenerativ qizdirgichlarda ta'minot suvi $t_{nB}=140^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi. Turbinaga kelayotgan bug'ning bosh parametrlari $P_0 = 3,5 \text{ MPa}$, $t_0 = 435^{\circ}\text{C}$, kondensatordagi bosim $P_k = 5 \text{ kPa}$; turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,82$; $\eta_{cm} = 0,95$. Regenerativ bug' olinishlar soni $n = 4$. Turbinaga bo'lgan bug' sarfini aniqlang.

Javob: $Dt = 53,3 \text{ t/soat}$.

6.6-masala. K-50-90 turbinaning aralashma regenerativ qizdirgichlarda ta'minot suvi $t_{nn}=200^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi. Turbina bug'ining boshlang'ich parametrlari $P_0 = 9 \text{ MPa}$, $t_0 = 500^{\circ}\text{C}$, kondensatordagi bosim $P_k = 5 \text{ kPa}$ turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,86$, $\eta_{cm} = 0,97$, regenerativ bug' olinishlar soni 5. turbinaga bo'lgan bug' sarfini va termik FIKOshishini aniqlang.

Javob: $Dt = 197 \text{ t/soat}$; $\Delta\eta_i = 10\%$.

6.7-masala. Masala 6.6 ni aralashma qizdirgichlarning o'rniiga yuzali qizdirgichlar o'rnatilishida yeching. To'yinish haroratigacha yetmaslik (nedogrev) $\theta = t_{om}'' - t_{ns} = 5^{\circ}\text{C}$. Regenerativ qizdirayotgan bug'ning kondensati kaskad sxemasi bo'yicha kondensatorga yuboriladi.

Javob: $Dt = 195 \text{ t/soat}$; $\Delta\eta_i = 8,9\%$.

6.8-masala. P-100-130/15 turbinali stansiyaning principial sxemasini quyidagi berilishlar bo'yicha issiqlik balansini hisoblang.

Turbinaga kirayotgan bug'ning boshlang'ich parametrlari: $P_0 = 12,74 \text{ MPa}$, $t_0 = 560^{\circ}\text{C}$. Turbinadan chiqayotgan bug'ning bosimi $P_k = 1,0 \text{ MPa}$. Qarshi bosimdan tashqi iste'molchiga bug' sarfi $D_{ts} = 540 \text{ t/soat}$;

Turbinaning nisbiy ichki FIK $\eta_{oi} = 0,844$

Turbogeneratorning elektrik mexanik FIK $\eta_{em} = 0,97$

Regeneratsiyaga bug' olinishlar soni $n=3$.


Qaytayotgan kondensat ulushi $\gamma_{xx} = 0,85$; $t_{kk} = 70^{\circ}\text{C}$.

Deaeratordagi bosim $P_g = 0,588 \text{ MPa}$;

Ki myoviy tozalangan suvning harorati $t_{xos} = 30^{\circ}\text{C}$.

Stansiyadagi bug' va kondensat yo'qolishi $\lambda_{wm} = 1,2\%Dt$


Turboqurilmaning principial sxemasi 8-rasmda berilgan.



8- rasm

Yechish: Qarshi bosimli turbinaning principial sxemasini hisoblash turbinaga bo‘lgan bug‘ sarfini va elektr quvvatini aniqlashdan iboratdir.

Turbinaga bo‘lgan bug‘ sarfini taxminan aniqlash uchun hisoblash sxemasini soddashtirib: uchta yuzali qizdirgich o‘rnatilgan deb hisoblaymiz.



9 -rasm

Bunda turbinaga bo‘lgan bug‘ sarfi:

$$D_T = D_{nD} + D_r; \quad D_{nD} = D_{t,s} + D_d.$$


Bu yerda:

$D_{t,s}$ – tashqi iste’ molchining bug‘ sarfi;

D_d – deaeratorga bug‘ sarfi;

D_r – regeneratsiyaga bug‘ sarfi

h – s diagrammada turbinada bug‘ kengayish jarayonini tasvirlab (10-rasm) h_k aniqlanadi.



10-rasm.

$$h_k = 2930 \text{ kJ/kg.}$$

Deaeratorga bug' sarfi material va issiqlik balans teneglamasidan aniqlanadi:

$$D_d = \frac{D_{x.o.s} (h'_g - h'_{x.o.s}) + D_{uk} (h'_g - h'_{uk})}{h_k - h'_g}$$

D_{as} - qaytayotgan kondensat sarfi t/soat;

Kimyoviy tozalangan suv sarfi:

$$D_{x.o.b} = (\varphi_{x.r}) D_{bn} + D_y + D'_{prod}$$

$D_y + D'_{np} \approx 15 \text{ t/soat}$ deb hisobga olsak

$$D_{x.o.b} = (1 - 0.85) 540 + 15 = 96 \text{ t/soat};$$

$$D_p = \frac{96(666,8 - 125,6) + 459(666,8 - 293)}{2930 - 666,8} = 98,77 \text{ t/soat}$$

Qarshi bosimdan bug' sarfi taxminan:

$$D_{nD} = D_{to'y\ b} + DD = 540 + 98,77 = 638,77 \text{ t/soat}$$

Ta'minot suvining harorati $t_{s,s} = 230^{\circ}\text{C}$.

Shartli regenerativ olinishning parametrlari aniqlanadi:

Aralashma regenerativ qizdirgichidagi ta'minot suvining harorati:

$$t_{pr} = \frac{t_{s,s} + t_d}{2} = \frac{230 + 158}{2} = 194^{\circ}\text{C}$$

O'rtacha bug' olinishidagi bosim:

$$P_{pr} = f(t_p^{cp}) = 1369 \text{ MPa.}$$

h – s diagrammadan: $h_p^{cp} = 2990 \text{ kJ/kg}$:

Shartli regenerativ qizdirgichga bug' sarfi aniqlanadi. Issiqlikning balans tenglamasi tuziladi:

$$D_p^{cp} (h_p^{cp} - h_{ns}^r) \eta_{m,i} = [D_{no} + D_{om} + D_{npn}] (h_{ns}^r - h_g')$$

bu yerda: $\eta_{m,i} = 0,98$ – qizdirgichning FIK

$$D_p^{cp} = \frac{(D_{no} + D_{om} + D_{npn}) \cdot (h_{ns}^r - h_g')}{(h_{ns}^r - h_{ns}^r) \eta_{m,i}} = \frac{(638,77 + 15)(990,3 - 666,8)}{(2990 - 990,3) \cdot 0,98} = 107,92 \text{ t/soat}$$

Taxminan turbinada bo'lgan bug' sarfi:

$$D_r = D_{no} + D_p^{cp} = 638,77 + 107,92 = 746,09 \approx 746,7 \text{ t/soat}$$

1. Х.А.Алимов, К.Х.Ахмедов. «Иссиклик электр станциялари» маъзура матни. - Ташкент. 2002у.
2. В.Я.Рыжкин. Тепловые электрические станции -2-е изд., перераб. доп. -М.: Энергия, 1976.
3. Д.П.Елизаров. Теплоэнергетические установки электростанций. -М.: Энергоиздат: 1982.
4. В.Я.Гришфельд, Г.Н.Морозов. Тепловые электрические станции. -М.: Энергия, 1986.
5. В.Я.Гришфельд, А.М.Князев, В.Е.Куликов. Режимы работы и эксплуатация ТЭС. -М.: Энергия 1980.
6. Контроль вредных выбросов ТЭС в атмосферу. Под ред. П.В.Рослякова - М.: МЭИ. 2004. -228с.
7. Повышение экологической безопасности ТЭС. Под ред. А.С.Сежлова -М.: МЭИ. 2002. -378с.
8. Основы современной энергетики. Том 1. Современная теплоэнергетика. Под об.ред. Е.В.Аметистова -М.: МЭИ. 2004. -376 с.
9. А.С.Копылов, В.М.Лавыгин, В.Ф.Очкив Водоподготовка в энергетике. -М.: МЭИ, 2003. -309 с.
10. Ю.Г.Назмесев, В.И.Лавыгин. Теплообменн аппараты ТЭС. -М.: МЭИ, 2002. - 260 с.
11. А.Д.Качан. Режимы работы и эксплуатация тепловых электрических станций. Минск: Высшая школа, 1978.
12. Е.Я.Соколов. Тепловые электрические станции и тепловые сети: -М.: Энергоиздат, 1982.
13. В.Н.Малюшенко, А.К.Михайлов. Энергетические насосы: Справочное пособие. -М.: Энергоиздат, 1981.
15. В.Я.Рыжкин, А.М.Кузнецов. Анализ тепловых схем мощных конденсационных блоков. -М.: Энергия, 1972.
16. Л.А.Рихтер. Газовоздушных тракты тепловых электростанций. -М.: Энергоатомиздат, 1984.

Mundarija

1. Energetik qurilmalarni prinsipiati issiqlik chizmalari va ularni hisoblash usullari	3
2. Turbinaning foydali ish koeffitsiyentini aniqlash	6
3. Turbinaning bug' sarfini aniqlash.....	7
4. Turbinaning quvvatini aniqlash	12
5. Bug' turbinasining kondensatorlari	12
6. Energetik qurilmalarning prinsipial issiqlik sxemalari va ularni hisoblash usullari.....	20
7. Adabiyotlar	30

Muharrir Sidikova K.A.

Musahhih Bahromova T.

Bosishga ruhsat etildi 05.03.2015 y Bichimi 60x84 1/16.
Shartli bosma tabog'i 2. Nusxasi 50 dona. Buyurtma № 376.

TDIU bosmaxonasida chop etildi. Toshkent sh, Talabalar ko'chasi 54.